

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

ISOMIDDINOV SADIRDIN G‘ANIJONOVICH

**FIRIBGARLIK JINOYATLARINING VIKTIMOLOGIK
PROFILAKTİKASINI TAKOMILLASHTIRISH**
(ichki ishlar organlari misolida)

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini
ta’minlash. Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата докторской (PhD) диссертации
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor
of philosophy (PhD)**

Isomiddinov Sadirdin G‘anijonovich

Firibgarlik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini takomillashtirish
(Ichki ishlar organlari misolida 3

Исомиддинов Садирдин Ганижонович

Совершенствование виктимологической профилактики
мошенничества (на примере органов внутренних дел)..... 23

Isomiddinov Sadirdin Ganijonovich

Improving the Victimological Prevention of Fraud Crimes
(on the example of internal affairs bodies) 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

ISOMIDDINOV SADIRDIN G‘ANIJONOVICH

**FIRIBGARLIK JINOYATLARINING VIKTIMOLOGIK
PROFILAKTİKASINI TAKOMILLASHTIRISH**
(ichki ishlar organlari misolida)

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini
ta’minlash. Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1503 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://akadmvd.uz/uz/nauka/deyatelnost-nauchnogo-soveta>) va "ZiyoNET" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saitqulov Qodirali Abdusalimovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ismailov Isamiddin
yuridik fanlar doktori, professor

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

IIV Malaka oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 28-noyabr kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel./faks: (+99871-265-22-52; e-mail: info@akad.mvd.uz).


Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD 1648-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 16-noyabrda tarqatildi.

(2025-yil 16-noyabrdagi 30-raqamli reestr bayonnomasi.)




A.S. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor


A.D. Xusanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent


Sh.A. Kulmatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali, ayniqsa, axborot tizimlari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, mulkka yoki mulkiy huquqlarga tajovuz qilish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarining keskin o'sishi kuzatilmoqda. 2024-yilning o'zidagina mazkur turdagi jinoyatlar natijasida jahon bo'ylab jabrlanuvchilarga yetkazilgan iqtisodiy zarar miqdori 1,03 trillion AQSh dollaridan ortiqni tashkil etgani fikrimizni tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, firibgarlik jinoyatlari, asosan, Osiyo va Afrika mintaqasidagi davlatlarda keng tarqalgan bo'lib, bunda aholining huquqiy savodxonlik darajasining pastligi, shaxslarda ishonuvchanlik kabi viktimologik xususiyatlarning yuqoriligi kabi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda¹. Shu sababli mazkur hududlarda jinoyatlarning oldini olishda profilaktik tadbirlarni huquqiy ta'lim va fuqarolarning axborot savodxonligini oshirishga yo'naltirish muhim hisoblanadi.

Jahonda shaxsni jinoiy tajovuzlardan, xususan, firibgarlik jinoyatlaridan muhofaza qilish, shuningdek, mazkur jinoyatlarning viktimologik profilaktikasini samarali tashkil etish va uning mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Firibgarlikning oldini olishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar qatorida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, aholining huquqiy va axborot sohasidagi savodxonligini oshirish, shuningdek, shaxslarda o'zini firibgarlikdan himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, ushbu profilaktik faoliyatni yanada takomillashtirish maqsadida firibgarlik jinoyatlariga moyil viktim shaxslarni aniqlash, ularning xulq-atvor xususiyatlarini o'rganish va ularga nisbatan maqsadli chora-tadbirlarni belgilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Bu esa viktimologik yondashuv asosida profilaktika samaradorligini yanada oshirish imkonini yaratmoqda.

Yangi O'zbekistonda fuqarolarning mol-mulkini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishda firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasini ta'minlashga, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi qonun normalarining ijrosini kuchaytirish va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qonunchilik tizimini tubdan isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'ladigan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish maqsadida "Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish²", "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "Milliy axborot maydonida qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni

¹ International Scammers Steal Over \$1 Trillion in 12 Months in Global State of Scams Report 2024//<https://www.gasa.org/post/global-state-of-scams-report-2024-1-trillion-stolen-in-12-months-gasa-feedzai>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5841063> (murojaat vaqti: 30.12.2024).

ta'minlash, fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish³ dolzarb vazifalar sifatida belgilangan. Shu bois, firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, sohaga zamonaviy mexanizmlar, ilg'or ish usul va shakllarni joriy etish, shuningdek, ushbu yo'nalishda hamkorlik samaradorligini oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat kodeksi" (1994), "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi" (1994), "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2010), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2014), "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi (2016), "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son (2021), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonlari, 2022-yil 25-maydagi "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-258-son, "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi "Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-17-son qarorlari, 2023-yil 23-iyundagi 17-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorlari va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini muayyan darajada amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda jinoyatlarning viktimologik profilaktikasining ayrim muammolari Q.R.Abdurasulova, R.S.Altiyev, S.N.Gordeev, A.G.Zakirova, Z.S.Zaripov, I.Ismailov, R.Kabulov, A.Sh.Murodov, S.S.Niyozova, G.B.Nurmuhammedova, A.B.Sabirbayeva, Q.A.Saitqulov, N.S.Salayev, A.S.Tursunov, S.B.Xo'jaqulov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Huquqshunoslar Q.R.Abdurasulova, A.G.Zakirova, Z.S.Zaripov, I.Ismailov, G.B.Nurmuhammedova, H.R.Ochilov, N.S.Salayevlar jinoyatchilikning kriminologik tavsifi va ularning oldini olishda foydalaniladigan profilaktik chora-tadbirlarni tadqiq etishgan. S.S.Niyozova shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasini, R.S.Altiyev firibgarlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari, S.B.Xo'jaqulov huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi,

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni // Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/6600413> (murojaat vaqti: 30.12.2024).

Q.A.Saitqulov ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilganlar.

S.T.Axmedxanova, K.D.Zarubina, A.A.Isakov, Y.Y.Musatova, A.A.Nikitina, T.A.Sidorenkova, T.G.Tugelbaevlar maishiy turmushdagi jinoyatlarning profilaktikasini, E.P.Abovyan, Y.M.Antonyan, L.A.Kolpakova, N.K.Kotova, O.V.Lixachayeva, Y.Y.Moshiskaya, V.A.Shakina, D.U.Musayev, I.A.Morchev – maishiy turmushdagi jinoyatlarning viktimologik jihatlarini, V.Y.Batyukova, K.V.Samoylenko, A.N.Ilyashenko, R.G.Tlyaumbetov, V.I.Shaxov, A.N.Fatayev, F.V.Shtefan, Y.S.Drojja, O.S.Kolmakovalar esa mazkur jinoyatlarning jinoyat-huquqiy, kriminologik jihatlarini hamda ularning oldini olishni dissertatsiya tadqiqoti doirasida o‘rganishganlar.

Biroq mazkur dissertatsiya ishlarida bugungi kunda sodir etilayotgan firibgarlikning viktimologik profilaktikasi, uning o‘ziga xos xususiyatlariga oid jihatlar yoritilmagan hamda ularning oldini olishni takomillashtirishning nazariy, huquqiy va amaliy jihatlariga oid kompleks tadqiqot o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining 2023–2025-yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish” ilmiy-tadqiqot ishining ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

firibgarlik jinoyatini sabab va shart-sharoitlarini tasniflash;

firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasining bugungi kundagi holatini tahlil qilish;

firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasida hamkorlikning mexanizmlarini tahlil qilish;

firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasiga oid xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish;

firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti firibgarlikning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini firibgarlikning viktimologik profilaktikasi va uning amalga oshirilishini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo‘llash amaliyoti, shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi ilg‘or xorijiy tajriba hamda yuridik fandagi firibgarlikning viktimologik profilaktikasiga oid konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada mavzuga oid masalalarni o‘rganishda tahlil, sintez, deduksiya, induksiya, mantiqiylik, tarixiy-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy

tahlil, anketa so'rovlari, jinoyat ishlari va statistik ma'lumotlar tahlili kabi tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi amaldagi qonunchilik doirasida belgilangan chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy munosabatlarning dinamikasi va jinoyatchilikning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy mexanizmlari va ta'sir usullarini qamrab olishi zarurligi asoslantirilgan;

firibgarlik jinoyatini sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan profilaktik ta'sir choralarini qo'llash jarayonida ilg'or tajribalarga asoslanib individual viktimologik omillarni inobatga olish zarurligi asoslantirilgan;

axborot tizimlaridan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan firibgarlik jinoyati uchun javobgarlikni belgilash, mazkur turdagi jinoyatga qarshi kurashishning huquqiy, tashkiliy mexanizmlarini hamda viktimologik profilaktikasini samarali tashkil etishga xizmat qilishi isbotlangan;

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarga firibgarlik jinoyatidan jabr ko'rgan shaxslarga yetkazilgan zararni undirishda yordam berish vazifasi yuklatilishi va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi qonunchilikda aniq belgilab qo'yish zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi asosida O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra:

3-moddaning (asosiy tushunchalar) 1-qismi 5-bandida nazarda tutilgan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" tushunchasida "huquqbuzarliklar jabrlanish holatlari, huquqbuzarliklarning sodir etilishi va undan jabrlanishni taqozo etuvchi omillar" jumlasining aks ettirilishi huquqbuzarliklar profilaktikasini keng qamrovli tashkil etilishiga va samaradorligini oshirishga;

43-moddada huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi tushunchasini yangi tahrirda berish, shuningdek, uning mazmunida "huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxs (jismoniy va yuridik)ning jabrlanish xavfini bartaraf etishga qaratilgan" jumlaning aks ettirish viktimologik profilaktikaning mohiyatini aniqlashtiradi va bu orqali jabrlanish ehtimolida bo'lgan shaxslarni himoya qilish bo'yicha vakolatli subyektlar mas'uliyatini oshirishga;

44-moddaning 1-qismidagi 1, 2, 3, 4 va 5-bandlarini yangi tahrirda qabul qilish, shuningdek, ularning mazmunida "jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxs"ni aks ettirish ushbu toifa shaxslar bilan bevosita va bilvosita profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishga;

yangi 45¹-modda bilan to'ldirish huquqbuzarlikdan jabrlanishni taqozo etuvchi ijtimoiy muammolarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etishga;

yangi 45²-modda bilan to'ldirish ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlari huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan individual ishlashga, shuningdek, jabrlanishni taqozo etuvchi omillarni barvaqt aniqlab ularni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya natijasi bo'yicha ishlab chiqilgan "Firibgarlikning oldini olish bo'yicha sohalar kesimida "Mahallabay" dasturi"ning qabul qilinishi firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasini tashkil etishga mas'ul subyektlarning o'zaro hamda keng jamoatchilikni jalb etgan holda amalga oshiradigan faoliyatini takomillashtirishga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarini aks ettiruvchi ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar 2021 – 2024-yillarda respublikamizning jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tomonidan ko'rilgan 232 ta jinoyat ishlari bo'yicha arxiv materiallari, 242 nafar profilaktika inspektorlari, 1256 nafar fuqarolar va turli tashkilotlar (bank, sog'liqni saqlash, ta'lim va h.k.) xodimlari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijalari hamda qonunni qo'llash amaliyotini tahlil qilish orqali asoslangan. Natijalar huquqni qo'llash amaliyotiga doir statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, tadqiqot ishida foydalanilgan materiallar tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan firibgarlikning viktimologik profilaktikasiga oid qonun hujjatlari va ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, tegishli qonun normalarini sharhlashda, ushbu turdagi profilaktikani, shuningdek, "Kriminologiya", "Viktimologiya", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati" va "Jinoyat huquqi" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati firibgarlikning viktimologik profilaktikasi amaliyoti samaradorligini oshirish hamda mazkur sohadagi hamkorlikni takomillashtirishga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Firibgarlikning viktimologik profilaktikasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi amaldagi qonunchilik doirasida belgilangan chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy munosabatlarning dinamikasi va jinoyatchilikning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, qo'shimcha profilaktik mexanizmlar va ta'sir usullarini qamrab olishi mumkinligiga doir takliflari asosida O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 44-moddasi 2-qism bilan to'ldirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 19-avgustdagi 3/08-144-sonli dalolatnomasi). Mazkur qonunning qabul qilinishi firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasida jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan individual ishlashga xizmat qiladi;

firibgarlik jinoyatini sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan profilaktik ta'sir choralarini qo'llash jarayonida individual viktimologik omillarni chuqur o'rganish va inobatga olish zarurligiga doir takliflar asosida O'zbekiston Respublikasi IIVning "Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani

tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i qabul qilingan (O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 22-martdagi 26/561-sonli dalolatnomasi). Mazkur buyruqning qabul qilinishi firibgarlik jinoyatidan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan individual ishlash mexanizmlarini takomillashtirishga hissa qo‘shadi;

zamonaviy axborot tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining yuqori ijtimoiy xavfliligi va spesifik xususiyatlaridan kelib chiqib, ular uchun alohida jinoiy javobgarlikni belgilashga doir takliflar asosida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 168-moddasi 3-qism “g” band bilan to‘ldirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 19-avgustdagi 3/08-144-sonli dalolatnomasi). Mazkur qonunning qabul qilinishi axborot texnologiyalari orqali sodir etiladigan firibgarlik jinoyatidan jismoniy va yuridik shaxslarning jabrlanishini kamaytirishga xizmat qiladi;

ixtisoslashtirilgan muassasalarga firibgarlik jinoyati bo‘yicha jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplashda yordam ko‘rsatish vazifasini yuklash va ularning ishini tashkil etish tartibini qonunchilikda belgilashga doir takliflari asosida O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunining 45-moddasi 2-qismiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 19-avgustdagi 3/08-144-sonli dalolatnomasi). Mazkur qonunning qabul qilinishi huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tuzish va ularning ishini tashkil etish tartibini belgilashda qonun ustuvorligini ta’minlashga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya hamda davra suhbatlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining chop etilganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16 ta, jumladan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta (shundan 2 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, ishning o‘rganilganlik darajasi hamda dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi hamda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, natijalarining e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Firibgarlik jinoyatining sabab va shart-sharoitlari tasnifi va uning viktimologik profilaktikasi**” deb nomlangan bo‘lib, unda firibgarlik jinoyatining sabab va unga imkon berayotgan shart-sharoitlarning ilmiy-nazariy jihatlari, huquqni qo‘llash amaliyotidagi bahsli holatlar o‘rganilgan, shuningdek, ularning tasnifi ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasining boshqa turdagi profilaktikalardan ajratib turuvchi o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “*Firibgarlik jinoyatini taqozo etuvchi sabab va shart-sharoitlar tasnifi*” deb nomlangan bo‘lib, unda dissertant ushbu yo‘nalishda, eng avvalo, “sabab” va “shart-sharoit” so‘zlarining lug‘aviy ma’nolarini chuqur o‘rgangan. Bu borada mamlakatimiz olimlari Q.R.Abdurasulova, Z.S.Zaripov, I.Ismailov, Y.S.Pulatov va M.Q.O‘razaliyevlarning fikr-mulohazalari hamda xorijiy mamlakatlarning mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib borgan olimlari S.I.Danilova, A.I.Dolgova, M.Y.Grigorev, V.D.Malkova va boshqalarning ilmiy asarlaridagi tadqiqot predmetiga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan firibgarlik jinoyatining jamiyatda yuzaga kelishini taqozo etadigan sabab va shart-sharoitlar mazmunan ikki yo‘nalishda o‘rganilgan va har bir yo‘nalish quyidagicha bir nechta guruhlarga bo‘lib tasniflangan:

birinchi yo‘nalish, firibgarlik jinoyatining sodir etilishini taqozo etuvchi sabab va shart-sharoitlar yo‘nalishi: a) tashkiliy-boshqaruv sohasidagi; b) iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi; d) ma’naviy-ruhiy; e) shaxsiy ehtiyojlar bilan bog‘liq sabab va shart-sharoitlar kabi guruhlarga bo‘lingan.

Dissertant amaliyot xodimlarining fikrlariga tayangan holda firibgarlik jinoyatining sodir etilishida 30,5 foiz holatda moddiy yetishmovchilikni, 28,8 foiz holatda ta’lim-tarbiyadagi kamchilikni, 17 foiz holatda ishsizlikni, 13,5 foiz holatda huquqiy madaniyatning pastligini, 10,2 foiz holatda oson yo‘l bilan pul topish istagi yuqoriligini *sabablar*, shuningdek, 53 foiz holatda profilaktik ishlarning yetarli emasligi, 47 foiz holatda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi kamchiliklar *shart-sharoit* ekanligini asoslantirgan;

ikkinchi yo‘nalish, firibgarlik jinoyatidan jabrlanish holatlarini keltirib chiqaradigan omillar yo‘nalishi bo‘lib, u ham o‘z navbatida: *subyektiv sabablar*: a) shaxsiy va psixologik xususiyatlar; b) ijtimoiy hamda iqtisodiy holatlar; *obyektiv shart-sharoitlar*: a) texnologik imkoniyatlar va muammolar; b) qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar; d) ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi kamchiliklar kabi guruhlarga bo‘lib o‘rgangan.

Dissertant amaliyot xodimlarining fikrlariga tayangan holda firibgarlik jinoyatidan jabrlanish holatlarini keltirib chiqarayotgan omillarni tahlil qilar ekan, ularni subyektiv sabablar va obyektiv shart-sharoitlar asosida quyidagicha asoslantirgan:

subyektiv sabablar: a) 71,4 foiz holatda jabrlanuvchilarning o‘ta ishonuvchanligi; b) 16,3 foiz holatda jabrlanuvchilarning o‘z maqsadlariga noqonuniy yo‘llar orqali erishishga bo‘lgan urinishlari;

obyektiv shart-sharoitlar: a) 6,9 foiz holatda jabrlanuvchilarda huquqiy bilim va ma’rifat darajasining etarli emasligi; b) 5,4 foiz holatda boshqa turdagi tashqi shart-

sharoitlar (ijtimoiy, axborot, tashkilotchilik va boshqalar) firibgarlik jinoyatlarining sodir etilishiga zamin yaratgan.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi “*Firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasining o‘ziga xos xususiyatlari*” deb nomlanib, unda firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasining boshqa turdagi profilaktikadan ajralib turuvchi o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Tadqiqotchining fikricha, firibgarlikning viktimologik profilaktikasi o‘ziga xos xususiyatini aniqlash, eng avvalo, boshqa turdagi profilaktikalardan farqli jihatlarni o‘rganishni taqozo etadi. Zero, firibgarlikning viktimologik profilaktikasining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lmas ekan, ushbu profilaktikaning boshqa turdagi profilaktikadan, xususan, o‘g‘rilik, talonchilik, tovlamachilik va boshqa shu kabi jinoyatlarning profilaktikasidan farqli tomonlari borasidagi nazariy masalalar munozaralarga sabab bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlarda firibgarlik viktimologik profilaktikasi boshqa turdagi jinoyatlarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi, shuningdek, viktimologik profilaktikasidan, *birinchidan*, tushunchasi, mazmuni va mohiyati, *ikkinchidan*, maqsadi va vazifalari, *uchinchidan*, subyeksi va obyeksi, *to‘rtinchidan*, qo‘llaniladigan profilaktik chora-tadbirlari bilan farq qilishi ilmiy asoslantirilgan.

Dissertant tomonidan firibgarlik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasiga oid maqsad va vazifalar, shuningdek, mazkur profilaktika faoliyatining subyekt va obyektleri aniqlangan. Shu bilan birga, “firibgarlik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasi” va “firibgarlik jinoyatining jabrlanuvchisi” tushunchalariga mualliflik ta’riflari ishlab chiqilib, ularni ilmiy muomalaga kiritish isbotlangan.

Dissertant tadqiqot natijalariga asoslangan holda firibgarlikning viktimologik profilaktikasi faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilab bergan bo‘lib, uning subyektlarini 6 ta, obyektlerini 4 ta, shuningdek, uyg‘unlikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni 4 ta guruhga tasniflagan. Firibgarlikning viktimologik profilaktikasi obyektleriga nisbatan yo‘naltiriladigan chora-tadbirlarni umumiy, maxsus, yakka tartibdagi hamda ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlari bilan uyg‘unlikda samarali qo‘llash, birinchi navbatda, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlardan chuqur huquqiy va psixologik bilim, malaka va ko‘nikma hamda amaliy tajribaga ega bo‘lishni taqozo etishi ilmiy asoslantirilgan.

Tadqiqot jarayonida dissertant tomonidan ichki ishlar organlarining firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasi faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq va samarali bo‘lgan quyidagi chora-tadbirlar asoslab berildi:

birinchidan, oila va ta’lim muassasalari (maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim)da tarbiya jarayoniga firibgarlikning viktimologik profilaktikasiga oid bilimlarni qamrab olgan maxsus dasturlar ishlab chiqish va amaliyotga samarali joriy etish;

ikkinchidan, aholining alohida toifalari (jumladan, jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan, jabrlanishga moyil va jabrlangan shaxslar) o‘rtasida viktimizatsiya jarayonining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda jabrlanuvchilarni aniqlash, hisobini yuritish, muntazam monitoring va tahlilni amalga oshirish;

uchinchidan, jabrlanuvchilar bilan bog‘liq vaziyatlarni hisobga olgan holda firibgarlik jinoyatini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli profilaktika tadbirlarini tashkil etish;

to‘rtinchidan, jabrlanuvchilar tomonidan aybdorning huquqqa xilof xatti-harakatlari to‘g‘risida xabar berilmaslik holatlarining sabablari va bunday holatlarga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘rganish va tahlil qilish;

beshinchidan, jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarning viktimlik xususiyatlarini aniqlash, ularning bunday holatga tushish sabablarini o‘rganish hamda viktimologik prognoz asosida kelgusida firibgarlikdan jabrlanish ehtimoli yuzasidan tashxis qo‘yish tizimini shakllantirish;

oltinchidan, firibgarlikning viktimologik profilaktikasiga oid usul, shakl va vositalarni aniqlash, ularni amaliyotga tatbiq etish orqali jabrlanish ehtimoli va viktimlikka moyillikning barvaqt oldini olish;

yettinchidan, firibgarlikning viktimologik profilaktikasi hamda ijtimoiy profilaktikasi chora-tadbirlarini o‘zaro uyg‘unlikda va kompleks tarzda qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

sakkizinchidan, shaxslarning firibgarlikdan jabrlanishiga sharoit yaratayotgan joylar (masalan, bozorlar, avtostoyankalar, bank atroflari va h.k.)ni patrul guruhlari nazoratiga olish yoki ularni videokuzatuv vositalari orqali nazorat qilish;

to‘qqizinchidan, har yili respublika miqyosida keng aholi o‘rtasida firibgarlikdan jabrlangan shaxslarning haqiqiy holatini aniqlash maqsadida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, bu jarayonda internet ijtimoiy tarmoqlari va raqamli platformalardan foydalanish.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobini **“Firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasining bugungi kundagi holati tahlili”** deb nomlangan. firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasini amalga oshirish, shuningdek, bu boradagi hamkorlikni ta‘minlashning bugungi kundagi holati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatimiz olimlari T.I.Bekpulatov, M.Z.Ziyodullayev, I.Ismailov, G.S.Ismailova, A.S.Tursunov, M.Hakimov va xorijiy davlatlar huquqshunoslari I.I.Yevtushenko va A.N.Muziyevlarning firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasiga oid fikrlari ilmiy munozara qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasining bugungi kundagi holati”*ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda dissertant mufassal statistik tahlillar va jinoyatning dinamikasi, subyektiv va obyektiv jihatlar asosida firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasiga (ya‘ni jabrlanishning oldini olishga) xolis va ilmiy baho berish imkonini yaratiladi degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi tomonidan amalga oshirilgan respublika bo‘yicha firibgarlik jinoyatlarining tahlil natijalari quyidagicha:

umumiy jinoyatlar soniga nisbatan ulushi 2020-yilda 16,9 foizni, 2021-yilda 25 270 tani yoki 22,7 foizni, 2022-yilda 20 591 tani yoki 19,6 foizni, 2023-yilda 18 492 tani yoki 17,8 foiz, 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich yana keskin o‘shib, 29 252 tani yoki 28 foizni tashkil etgan. 2025-yilning 9 oyida sodir etilgan jinoyatlar 27 733 tani tashkil etgan;

2021-yilda 13,5 foiz, 2022-yilda 6,4 foiz, 2023-yilda 11,1 foiz, 2024-yilda esa 71,9 foiz, 2025-yil 9 oyida 82,1 foiz aynan internet va raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilgan;

hududlar kesimida Toshkent shahri (33,2 foiz), Buxoro (13,2 foiz), Farg‘ona (10,4 foiz), Toshkent (8,2 foiz) va Samarqand (6,1 foiz) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan;

respublika bo‘yicha eng ko‘p sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining usullari tahlili axborot texnologiyalari orqali 21036 ta (71,9 foiz), avtomashina olib berish 961 ta (3,3 foiz), uy-joy olib berish 727 ta (2,5 foiz)ni tashkil etgan.

Tadqiqotchining tahlil natijalariga ko‘ra, firibgarlik jinoyatlari soni va uning jamiyatdagi tarqalishi yillar davomida turli darajada o‘zgarib borayotgani kuzatilmoqda. Mazkur jinoyatning keng ko‘lamda tarqalayotgani esa, avvalo, viktimologik profilaktika tadbirlarining samaradorligi yetarli darajada ta‘minlanmayotganidan dalolat beradi. Ushbu holat firibgarlik jinoyatiga moyillik va undan jabrlanish xavfining hanuz yuqori darajada saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Dissertant tomonidan amalga oshirilgan respublika bo‘yicha firibgarlik jinoyatidan jabrlanganlar tahlil natijalari quyidagicha:

jabrlanganlar soni 2020-yilda 42 794 nafarni, 2021-yilda 33 865 nafarni, 2022-yilda 32 686 nafarni, 2023-yilda 28 688 nafarni, 2024-yilda 31 635 nafarni, 2025-yilning 6 oyi davomida 14 174 nafarni tashkil etgan;

jabrlangan shaxslarning *jins jihatdan tahlili* 3 207 nafari yoki 32,0 foizi ayollar, 6807 nafari yoki 68,0 foizi esa erkaklardan iborat;

jabrlanuvchilarning oilaviy ahvoli bo‘yicha oilali (rasmiy nikohdagi) – 8 369 nafar (83,5 foiz); turmush qurmagan – 1 352 nafar (13,5 foiz); ajrashgan – 262 nafar (2,6 foiz); beva (eri yoki xotini vafot etgan) – 24 nafar (0,2 foiz); oilali (norasmiy nikohdagi) – 7 nafar (0,07 foiz), uy bekalari 843 nafar (8,4 foiz) hamda mehnatga layoqatsizlar 332 nafar (yoki 3,3 foiz)dan iborat;

rasmiy nikohdagi oilali shaxslar firibgarlik jinoyatidan jabrlanganlar orasida mutlaq ko‘pchilik (83,5 foiz)ni tashkil etgan;

jabrlanuvchilarning 72 foizi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan shaxslar;

jabrlanuvchilar ma‘lumoti darajasiga ko‘ra quyidagicha taqsimlangan: to‘liqsiz o‘rta va o‘rta ma‘lumotlilar – 6385 nafar (63,7 foiz); o‘rta maxsus ma‘lumotlilar – 2 377 nafar (23,7 foiz); oliy ma‘lumotlilar – 1 252 nafar (12,5 foiz).

Dissertant o‘tkazgan tahlillar asosida shunday xulosaga kelinganki, mavjud statistik ko‘rsatkichlar jinoyatlarning faqatgina ko‘p yoki kam qayd etilganligini emas, balki jamiyatdagi huquqiy xabardorlik darajasi, kiberxavfsizlik madaniyatining shakllanganligi hamda amalga oshirilayotgan profilaktika mexanizmlarining samaradorligini baholash uchun muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Xususan, 2021–2024-yillar va 2025-yilning 9-oyida firibgarlik jinoyatidan jabrlanish holatlarining yuqori darajada qayd etilgani nafaqat jinoyatchilarning faolligi bilan, balki viktimologik profilaktika chora-tadbirlarining aniq obyektlarga manzilli yo‘naltirilmaganligi bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotchi firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini qo‘llash samaradorligi: a) profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llashda subyektlarning roli

hamda ularning hamjihatligi; b) yangicha mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish natijadorligi; d) zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligi; e) mavjud qonunchilik va huquqiy asoslarning muntazam takomillashtirilishi; f) jamoatchilik fikrining inobatga olinishiga bog'liq degan xulosaga kelgan.

Dissertant fikricha, firibgarlik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda qonunchilikda belgilangan vakolatli subyektlar faoliyati yTetarli darajada samarali emas. Zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish ko'lami past bo'lib, joriy etilayotgan yangicha mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonida qator muammolar kuzatilmoqda. Shuningdek, profilaktik faoliyatning haqiqiy holati jamoatchilik fikriga tayanmagan holda baholanmoqda. Ushbu holatlar profilaktika chora-tadbirlarini aniq obyektlarga manzilli yo'naltirish imkoniyatini cheklab, samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqotchi firibgarlikning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini qo'llashning bugungi kundagi holati bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rgangan. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 22 foizi firibgarlikning viktimologik profilaktikasi choralari juda samarali, 24 foizi etarli darajada samarali, 36 foizi o'rtacha darajada samarali, 10 foizi samarasiz va 8 foizi umuman amalga oshirilmayapti, deya baholagan. Demak, respondentlarning qariyb yarmi (46 foiz) profilaktika tadbirlarini sezayotgan bo'lsa-da, eng yirik qismi (36 foiz) ularni faqat "o'rtacha" darajada samarali, deb topgan. Bu esa chora-tadbirlar asosan umumiy targ'ibot shaklida olib borilayotganini, manzilli va interaktiv usullar etarli darajada qo'llanilmayotganini anglatadi. Shuningdek, so'rovda ishtirok etganlarning 18 foizi profilaktika ishlariga ishonchsizlik bildirgani profilaktikaning axborot, qamrov va ta'sirchanlik jihatlarida kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi.

Ikkinchi bobning "*Firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasida hamkorlikning mexanizmlari*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida firibgarlikning viktimologik profilaktikasida hamkorlik tushunchasi, shakllari, ushbu faoliyatda axborot almashish yo'nalishlari, olingan axborotlarni tahlil qilish amaliyoti hamda bu sohadagi muammolar va ularni bartaraf etishga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan ilmiy-nazariy va qonunchilik tahlillariga asoslangan holda firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasini samarali amalga oshirishda hamkorlik quyidagi asosiy yo'nalishlar: a) ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi bo'linmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik; b) ichki ishlar organlari profilaktika bo'linmalari va boshqa davlat organ hamda tashkilotlari o'rtasidagi institutsional hamkorlik; d) fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish; e) aholining, xususan, fuqarolarning mazkur jarayonda faol ishtirokini ta'minlash; f) xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlik kabilar bo'yicha tasniflangan.

Dissertant fikricha, firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirishda aksariyat hollarda tashabbus va mas'uliyatning yo'qligi, ijro mexanizmlari to'liq ishlamayotganligi bu sohadagi faoliyatni samarali tashkil etish imkonini bermayapti. Bu boradagi muammolarni bartaraf etish uchun keng qamrovli (ichki ishlar organlarining idoraviy, idoralararo, xalqaro va ijtimoiy sheriklik asosida)

hamkorlikka tayanish, shuningdek, firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini umumiy, maxsus va yakka tartibdagi, qolaversa, ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlari bilan uyg'unlikda amalga oshirish zarur degan xulosaga kelgan.

Jamiyatdagi hodisa, voqea va jarayonlarni bilishning dialektik metodlariga asoslanib, tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda firibgarlikning viktimologik profilaktikasida subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasini takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan bo'lib, unda ichki ishlar organlarining firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasi faoliyatiga oid ayrim xorijiy davlatlar (Albaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Belarus, Vengriya, Gana, Germaniya, Gruziya, Iordaniya, Isroil, Kanada, Norvegiya, Rossiya, Turkiya, Filippin, Finlyandiya, Fransiya, Yaponiya, Qozog'iston, Hindiston) tajribasi tahlil qilingan hamda mamlakatimiz ichki ishlar organlarining bu boradagi faoliyatini takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasiga oid xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi”* deb nomlanib, unda dissertant xorijiy davlatlarning firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktika chora-tadbirlari: a)shaxsiy yoki ijtimoiy guruhlar viktimlashuvining obyektiv omillarini zararsizlantirish; b) aholining alohida toifasi o'rtasida tushuntirish ishlari, huquqiy targ'ibot; d) davlatning kompensatsiya va zararni qoplash tizimini nazarda tutgan holda jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining buzilishini oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda jamoatchilikni jalb etish amaliyoti keng qo'llanilishi samarali ekanligini aniqlagan.

Tadqiqotchining fikricha, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini mamlakatimiz ichki ishlar organlarining firibgarlik jinoyatining viktimologik profilaktikasi amaliyotiga joriy etish mumkin bo'lgan o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

mobil ilovalar orqali aldanchilikka oid qo'ng'iroqlar va xabarlarini bloklash, shubhali faoliyat haqida fuqarolarni real vaqtda ogohlantirish tizimini yaratish (Singapurda “ScamShield” mobil ilovasi);

viktimologik tahlil asosida firibgarlik qurboni bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni, hududlarni va ijtimoiy qatlamlarni aniqlash hamda ularning har biriga moslashtirilgan axborot va maslahat choralarini amalga oshirish (Niderlandiya profilaktikaning modeli);

har yili ikki marta *“Kiberxavfsizlik o'n kunligi”* tadbirlari doirasida huquq-tartibot organlari va OAV jurnalistlari birgalikda ko'p sodir etilayotgan kiberjinoyatlar turlari va ulardan himoyalalanish yo'llari xususida batafsil onlayn va oflayn targ'ibot ishlarini tashkil etish;

kiberjinoyatlarni aniqlash yoki jinoyat sodir bo'lgan joyni kuzatish, uzoq muddat davomida jinoyatchini kuzatib yurish kabi usullardan foydalanishga asoslangan “Jurnalistik tadqiqot”ni amalga oshirish;

eng mashhur kiberjinoyat turlari va ularning qurbonlari bilan haqiqiy ko'rsatuv (masalan, Hindistonda “Hotspot” reality shousi mavjud) tashkil etish.

Uchinchi bobning *“Firibgarlik jinoyati viktimologik profilaktikasini takomillashtirish yo‘nalishlari”* deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafida mazkur faoliyatni takomillashtirishga oid fikr-mulohaza va takliflar keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra, uning maqsad va vazifalaridan mamlakatimizda, shu jumladan, sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatidan, shuningdek, jamiyat ehtiyoji hamda talablaridan kelib chiqib, firibgarlik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini takomillashtirishga oid bir necha yo‘nalishlardagi taklif va tavsiyalar berilgan.

